



UZBEKNEFTGAZ

“O'ZBEKNEFTGAZ” AJNING SANOAT VA EKOLOGIYA XAVFSIZLIGI, SOG'LIQNI MUHOFAZA QILISH VA MEHNAT XAVFSIZLIGI SOHASIDAGI SIYOSATI

O'zbekistonning zamonaviy neft va gaz sanoati iqtisodiyotning yirik tarmoqlaridan biri, mamlakatning eng muhim energetik bazasi hisoblanadi.

“O'zbekneftgaz” Ajda (keyingi o'rinnlarda - Jamiyat) muhim ilmiy-texnik salohiyat yaratilgan, uning rivojlanishida ma'lum yutuqlarga erishilgan. Yoqilg'i-energetika kompleksini jadal rivojlantirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Jamiyat faoliyati O'zbekistonning milliy boyligini oshirishga, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish, uglevodorod va neft mahsulotlarini kompleks qayta ishlash orqali neft mahsulotlariga bo'lgan bozor ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Jamiyat O'zbekiston Respublikasidagi eng yirik Jamiatlardan biri sifatida xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash, sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatadigan hududlarda yashovchi xodimlar va aholi salomatligini muhofaza qilish, shuningdek atrof-muhitni muhofaza bo'yicha o'z mas'uliyatini anglaydi.

Jamiyat xodimlarining sog'lig'i, asbob-uskunalar va atrof-muhitga ta'siri bilan bog'liq sanoat xatarlari o'z nazorati ostida bo'lishiga kafolat beradi. Jamiyat faoliyatini rejalashtirishda avariylar, baxtsiz hodisalar, kasb kasalliklarining oldini olish va yo'l qo'ymaslikka hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga ustuvor ahamiyat beradi.

Jamiyat quyidagi umumiy maqsadlarni belgilaydi:

- sanoat va ekologiya xavfsizligi, sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi holatini doimiy ravishda yaxshilash, nazoratni ta'minlash va ushbu majburiyatlarni bajarish;
- ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar, baxtsiz hodisalar va ishlab chiqarishning atrof-muhitga salbiy ta'sirini doimiy ravishda kamaytirishga erishish;
- tabiiy resurslar, materiallar va energiyaning maksimal iste'mol qilinadigan mahsulot sarfini bosqichma-bosqich kamaytirish maqsadida ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish orqali “O'zbekneftgaz” AJ korxonalari ishlab chiqarish quvvatlarining sanoat va ekologiya xavfsizligini oshirish;
- Jamiyatda sanoat va ekologiya xavfsizligi, sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi sohasida samarali boshqaruv tizimini yaratish va ta'minlash, bu Jamiyat oldida paydo bo'ladigan sanoat va ekologiya xavfsizligi, sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligining eng muhim vazifalarini muntazam rejalashtirish va hal qilishni ta'minlaydi;
- Jamiyatda sanoat va ekologiya xavfsizligi, sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi sohasidagi dasturlarni tayyorlash va amalga oshirishning samarali tartiblarini yaratish, Jamiyatda duch keladigan sanoat xavfsizligining eng muhim muammolarini doimiy ravishda aniqlash va hal qilishni ta'minlash;
- neft va neft mahsulotlarining to'kilishi, gazni havoga chiqib ketishi va emissiya toksinligini kamaytirish, shuningdek, yangi progressiv texnologiyalar, uskunalar, materiallar joriy etilishi hamda texnologik jarayonlarni boshqarishni avtomatlashtirish darajasining oshishi hisobiga ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan chiqindilar hamda ifloslantiruvchi moddalarlarning zararini kamaytirish;
- atrof-muhitga texnogen yukni kamaytirish, yangi foydalanishga topshiriladigan obyektlardan kelib chiqadigan sanoat xatarlari ta'sirini loyihalashdan oldin va loyiha hujjatlarini tayyorlash sifatini oshirish hamda Jamiyatda sanoat xavfsizligi ekspertizasini o'tkazish;

- Jamiyat korxonalari obyektlarida sanoat va ekologiya xavfsizligi, sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi sohasidagi normalar va qoidalari talablariga rioya etgan holda ishlab chiqarish nazoratining samaradorligini oshirish;

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun «O'zbekneftgaz» AJ quyidagi majburiyatlarni o'ziga oladi:

- sanoat va ekologiya xavfsizligi, sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi sohasida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Jamiyat faoliyatiga taalluqli va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari talablariga, davlat talablariga, tarmoq standartlari va me'yorlariga rioya etilishini ta'minlash. Shu maqsadda Jamiyat sanoat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini yaratadi va muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydi. Ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilikiga to'liq mos ravishda, eng yaxshi mahalliy va xorijiy tajribalar asosida qurilgan ISO 45001 va ISO 14001 xalqaro standartlari talablariga muvofiqligi bo'yicha sertifikatitsiyadan o'tish;

- sanoat xavfsizligi, mehnat va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan qonunchilik va boshqa talablarni, joriy va rejalashtirilgan tadbirlar, taqdim etilayotgan mahsulotlar va xizmatlarning muhim sanoat xatarlarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish;

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha barcha mavjud va amalda bajariladigan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish hamda ular ro'y bergan taqdirda xodimlarning salomatligi, atrof-muhit va mol-mulk uchun ularning oqibatlarini yumshatish bo'yicha choralar ko'rish;

- tabiiy resurslar, materiallar va energiyaning iste'mol qilinishini maksimal darajada oshirish bilan bosqichma-bosqich kamaytirish maqsadida ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali neft, neft mahsulotlari va gaz yo'qotishlarini kamaytirish hamda ularning atrof-muhitga kirib kelishini kamaytirish bo'yicha doimiy va maqsadga muvofiq ishlarni olib borish;

- Jamiyat korxonalari va aksiyadorlik jamiyatlarining ishlab chiqarish obyektlarida ishlaydigan sanoat ishchilari va pudratchilaridan Jamiyat tomonidan qabul qilingan sanoat va ekologiya xavfsizligi, sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi sohasida tegishli standartlar va me'yorlarga rioya qilishni talab qilish;

- sanoat xatarlarini aniqlash va boshqarish bo'yicha tadbirlarda faol ishtiroy etish uchun Jamiyatning butun xodimlarini jalb qilish. Shu maqsadda Jamiyat ijro etuvchi apparati xodimlari, korxonalari va ularning ishlab chiqarish ob'yektlaridagi xodimlarni munosib rag'batlanadirish, o'qitish va malakasini oshirishni amalga oshirish;

- Jamiyatning sanoat va ekologiya xavfsizligi, sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi sohasidagi siyosatini zaruriyatga qarab qayta ko'rib chiqish, to'g'rilash va takomillashtirish;

- sanoat va ekologiya xavfsizligi, sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi sohasidagi Siyosatdagi barcha o'zgarishlarni Jamiyatning hamma xodimlari, jamoatchilik, ijro etuvchi hokimiyat organlari, nazorat qiluvchi organlar, sheriklar, pudratchilar va boshqa manfaatdor tomonlarga yetkazish;

- Jamiyatning aksiyadorlariga, xodimlariga, shuningdek jamoatchilikka sanoat va ekologiya xavfsizligi, sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi sohasidagi faoliyati to'g'risida vaqtı-vaqtı bilan hisobot berish;

- Jamiyatning barcha xodimlaridan sanoat va ekologiya xavfsizligi, sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligining amaldagi qoidalari va me'yorlariga muvofiq ish olib borishni talab qilish.